

BOSHQARUV QARORLARI QABUL QILISHDA «AQLIY MARKAZLAR» SALOHIYATIDAN SAMARALI FOUDALANISH MEKANIZMLARI

Mahsutaliyev Abdusalom Hasanovich
Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti dotsenti , i.f.n.

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimining joriy holati, mavjud muammolar, rivojlantirishning strategik maqsadlari va ularni amalga oshirish mexanizmlari, oliy ta'lim tizimini rivojlantirish konseptsiyasini amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar haqida fikr yuritilgan. Mazkur maqolada boshqaruv kompetensiyalarining o'ziga xos jihatlari, xulq-atvor yondashuvi asosida kompetensiyalar tasniflanishi, kompetensiya modelining vizual talqini, O'zbekistonda davlat xizmatchilari, boshqaruv kadrlarining boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar o'rganilgan.

Annotatsiya

This project discussed the current state of the higher education system of the Republic of Uzbekistan, existing problems, strategic development goals and mechanisms for their implementation, expected results from the implementation of the concept of development of the higher education system. This GPW studies specific aspects of managerial competencies, classification of competencies based on a behavioral approach, visual interpretation of the competency model, reforms aimed at developing managerial competencies of civil servants and managers in Uzbekistan. A universal model of professional competencies is also considered, in which five groups of competencies are distinguished: personal, social, technical, organizational and managerial. Competency clusters are arranged in a certain order.

Kalit so'zlar: boshqaruv, samaradorlik, "aqliy markaz", boshqaruv qarorlari, menejment, baholash konseptsiyasi

Oliy ta'lim muassasalari boshqaruv organlari faoliyati samaradorligini baholashga qaratilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar, tahlil va izlanishlarni tizimli tashkil

etish nafaqat davlat siyosatini ishlab chiqishda, balki oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv qarorlari qabul qilishni o'rganishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'z navbatida boshqaruv qarorlari qabul o'rganishda "aqliy markazlar" salohiyatidan samarali foydalanishni taqozo etadi.

"Hozirgi kunda jahonda umumiy "Aqliy markaz"larning 34,2 foizi Shimoliy Amerika davlatlarida, 22,1 foizi G'apbiu Evropa hududida faoliyat yuritmoqda. Hozirda 1777 ta "Aqliy markaz" AQSHda joylashgan bo'lib, ulardan 350 tasi Vashingtonda. Keyingi o'rinlarni Buyuk Britaniya, Gepmaniya, Frantsiya, Argentina va Hindiston davlatlari egallaydi".¹

Kuchli "Aqliy markazlar"ning tashkil topishi mamlakatning intellektual salohiyati darajasi, ijtimoiy-siyosiy muammolarni kompleks hal etish va jamoatchilikning faollik darajasi bilan belgilanadi. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda "Aqliy markazlar" hukumatga tahliliy muassasalar bilan ishlashni yanada kengaytirish, ular opqali mamlakat imijini oshirish, dunyo bo'ylab geosiyosiy ta'sirini mustahkamlashga qodir ilmiy - tadqiqot markazlarning global tapmog'ini tashkil etish va qo'llab-quvvatlashni tavsiya qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 uil 29 martdagi "Davlat organlarining ekspert - tahlil faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-3268 sonli Qarorida davlat boshqaruvi organlarida doimiy faoliyat yuritadigan ekspept - tahlil guruhlarini zimmasiga davlat organlarida 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi va O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar kontseptsiyasining ijrosi doirasida amalga oshirilayotgan faoliyatni axbopot-tahliliy hamda ekspert-tahliliy jihatdan ta'minlash vazifasi yuklatildi. Bu o'z navbatida, mahalliy davlat hokimiyati organlarida boshqaruv qarorlari qabul qilishni o'rganishda "Aqliy markazlar" ni tashkil etishni taqozo etadi.

Tahlillar natijasi shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda mahalliy davlat hokimiyati organlarida boshqaruv qarorlari samaradorligini baholashda mustaqil tadqiqot va

¹ I.Xamdamov. Jahonda harbiy analitik kadrlari tayyorlash tajribasi//<http://mv-vatanparvar.uz/uz/news?id=7885>.

tahlil o'tkazuvchi "Aqliy markazlar" imkoniyatidan samarali foydalanilmaydi. Bunday holatda ijtimoiy-siyosiy, tashkiliy-huquqiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalarda qabul qilinayotgan qarorlar samaradorligi va natijadoplugini oldindan baholash imkoniyati cheklanadi.

Mazkur holatda yechim sifatida rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganash va tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan mamlakatlarda munitsipal hokimiyat bilan akademik muhit o'rtasida samarali muloqot tizimi joriy etilgan. Shu nuqtai nazardan ham mamlakatimizda oliy ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasida integratsiyani kuchaytirish maqsadida 2017 yil 27 iul kuni O'zbekiston Respublika Prezidentining "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi. Qarorda Birlashgan millatlar tashkilotining ta'lim, fan va madaniyat masallari bo'yicha qo'mitasi (UNESCO) hamda konsalting tashkiloti (DGP Research & Consulting) hamkoplighida jalb qilingan nufuzli xorijiy ekspertlar guruhi tomonidan 2017 yilning yanvar-iyun oylarida O'zbekiston Respublika ta'lim tizimini kompleks o'rganashga oid o'tkazilgan tahlillar natijasi bo'yicha berilgan xulosalar asosida oliy ta'lim jarayonida nazariya va amaliyot yaxlitligini ta'minlash ko'zda tutilgan.

2018 yildagi "Faol tadbirkoplik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" Davlat dasturida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv qarorlari samaradorligi va natijadorligini baholashning zamonaviy tadqiqot usullarini joriy etish hududlarda "Aqliy markazlar"ni tashkil etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Ushbu zaruriyatni quyidagi holatlar bilan izohlash mumkin:

birinchidan, oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv qarorlari samaradorligini baholovchi mezonlarni belgilashda turlicha yondashuvlar mavjud;

ikkinchidan, odatda, oliy ta'lim muassasalarining faoliyatiga, ular tomonidan qabul qilingan qarorlar samaradorligiga davlat organlari va jamoatchilik tomonidan baho beriladi (tegishli yuqori vazirlik va idopalarning tekshiruvlari OAV va hokazo).

"Aqliy markazlar" ning aynan boshqaruvning quyi bo'g'inlarida mavjud emasligi oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv qarorlari samaradorligi va natijadorligini baholashga bir tomonlama, ya'ni faqat davlat nuqtai nazaridan baho berishga olib keladi;

uchinchidan, oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv qarorlari samaradorligi va natijadorligini baholash kontseptsiyasi ishlab chiqilmagan, mazkur sohada fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar, so'rovnomalar, aniq ilmiy uslubga asoslangan tahlillar o'tkazish tizimli tashkil etilmagan;

to'ptinchidan, oliy ta'lim muassasalari tomonidan boshqaruv qarorlari qabul qilishni o'rganish jarayoniga hamma vaqt ham tegishli ekspertlar yoki manfaatdor hamkorlar to'liq jalb etilmaydi;

Rivojlangan davlatlarda "think tanks", "brains trust", ya'ni "Aqliy markazlar", "G'oyalar laboratoriyasi" yoki "Fikrlar fabrikasi" deb nomlanuvchi tahlil markazlari faoliyat yuritib, ular ilmiy-amaliy tadqiqot natijalari hayotga tatbiq etishda, strategik monografiyalarni ishlab chiqish bo'uicha davlat buuuptmalarini bajariShda muhim o'ringa ega.

Nafaqat mahalliy davlat hokimiyati organlarida boshqaruv qarorlari samaradorligini baholash, shuningdek, boshqaruv qarorlarini qabul o'rganish jarayonida "Aqliy markazlar"ning ishtiroki dolzab masalalarni yechishda optimal qaror qabul o'rganish imkoniyatini kengaytiradi. Shuningdek, ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi o'zaro hamkoplilikni kuchaytiradi.

Isroillik siyosatshunos olim Iezkil Drorning ta'kidlashicha, "Aqliy markazlar"- fanlararo uzluksiz ilmiy tafakkurni, siyosatni shakllantirish (rolicumaking) jarayonini tubdan takomillashtirishga, ta'lim va bilim o'rtasidagi bosh bog'lovchi bo'g'in sifatida tatbiq etish hisobiga yaratilgan taraqqiyot markazlari»² hisoblanadi. Xalqaro amaliyotda esa "Aqliy markazlar"ga o'z strategiyalarini ishlab chiqish ularni muhim qonunchilik yoki ijro hokimiyati qarorlarini qabul o'rganishga doir aniq takliflar ko'rinishida ifodalashga qodir bo'lgan shaxslar, ya'ni aql-zakovat sohiblarining

² Erik C.Johnson, How Think Tanks Improve Public Policy// Economic Reform Today, №3, 1996, p.36

muayan muassasalarda jamlanishidir»³, degan ta'rif beriladi. "Aqliy markazlar"ning asosiy vazifasi ishlab chiqilgan g'oyalarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda qo'llanilishi, amaliyotga tatbiq etilishi mumkin bo'lgan uslubiy ko'rinishida yaratish, ilgari surish va baholashdan iborat.

Ta'kidlaSh joizki, "Aqliy markaz" tushunchasi aynan PEND(RAND Corporation-inglizcha "Research and Development"- "tadqiqot va taraqqiyot" so'zining bosh harflaridan olingan⁴) korporatsiyasining tashkil topishi bilan bog'liq, AQSHda 2-jahon urushi yillarida amaliyotga kirib kelgan mazkur tushuncha dastlab rahbar shaxslar va harbiy mutaxassislarning strategik masalalarni muhokama etishi uchun o'ziga xos forumi sifatida qo'llanila boshlagan edi. Keyinchalik bu tavsif mamlakatdagi yirik tahlil markazlariga nisbatan ishlatila boshlandi. Shu bois, PEND korporatsiyasi dastlabki "Aqliy markazi sifatida qo'p tilga olinadi"⁵

Hozirgi kunda "Aqliy markazlar" ning funktsional faoliyat sohalarini quyidagi toifalarga ajratish mumkin:

- 1) advokatlik faoliyati;
- 2) partiya doirasidagi tadqiqotlar;
- 3) hukumat huzuridagi siyosiy pejalashtirish va tadqiqotlar;
- 4) korporativ konsultlar;
- 5) ta'lim-tapbiya.⁶

Ba'zi tadqiqotchilar o'z ishida bevosita AQSH "Aqliy markazlar"ining vujudga kelish bosqichlari, ular faoliyatining o'ziga xos jihatlari, dunyo tahlil muassasalarining ish tajribalari xususida fikr yuritishgan. Ular qatoriga Z.Bapan, S. Blank, S. Braunbak, P. Dikson, A. Koen, N. Luubin, M. Laymulin, M. Olkott, B. Puber, B. Pubin, F. Starp, S. Telbott kabi mutaxassislarni kiritish mumkin.⁷

³ . Ratuvoxeri T. Sovremennye fabriki mysli//http://skabber.nir.com. un/node/163.

⁴ Dikson P. Fabriki mysli. –M.: Izdatelstvo AST, 2004-S.37

⁵ Laumulin M. Опыт deyatelnosti mirovyykh analiticheskix tsentrov i TSentralnaya Aziya // Analytic , 2004, № 3-4. –S. 11-20

⁶ . Ratuvoxeri T. Sovremenniy fabriki mysli. Funktsii i rol fabrik mysli v politicheskoy jizni s tranyu//http://xyz.org.ua/discussion/tnk3. Html#1

⁷ Baran Z. Hizb ut- Tahrir: Islam's Political Insurgency. The Nixon Centre.- Washington, 2004 Baron Z. Oil, Oligarchs, And Opportunity:Energy From Central Asia ToEurope. Commitree on Foreign Relations The United States Senate. 2008; Sam Brownback. The Silk Road Strategy Central Eurasia Review, 1997.:

Tadqiqotchi F.Arzievning ta'kidlashicha, AQSHda "Aqliy markazlar" davlat boshqaruvining barcha sohalariga kirib borgan. Jumladan, fan va ta'lim, sog'liqni saqlash, transport yuklarini etkazib berish, bozorni epkinlashtirish, axborot-telekommunikatsiya tizimi, mintaqaviy integratsiya, ekologiya, xalqaro aloqalar, terrorchilikka, uyushgan jinoyatchilikka, giyohvand moddalarning noqonuniy savdosiga qarshi kurashish, xullas, hozirgi davrning barcha dolzarb masalalarini hal etishda "Aqliy markazlar"ning ishtirokini kuzatish mumkin⁸

Shu o'rinda, AQSH, Evropa, Xitoy, Hindiston va boshqa mamlakatlarda Markaziy Osiyoni o'rganish bo'yicha ko'plab ilmiy markazlar faoliyat ko'rsatishini tilga olish joiz. Xususan, Hindistonning o'zida bizning mintaqamizni Dehli, Kal'kutta, Mumbai, Kashmir universitetlari va "Aqliy markazlar"ning olimlari tadqiq qiladi. AQSHda Markaziy Osiyo bo'yicha tadqiqotlar Garvard, Stenford, Kolumbiya, J.Vashington, J.Xorkins, Indiana va boshqa universitetlarda tadqiq etilgan. RAND, Jamestown Foundation, Freedom House, "Evrosiyo" fondi va boshqa mashhur tahlil markazlarini alohida ta'kidlash mumkin⁹. Hozirgi davrda "Aqliy markazlar"ning mavjudligi global hodisaga aylandi. Rivojlangan mamlakatlarda boshqaruvning barcha bo'g'inlarida tahlil muassasalarining faoliyatini kuzatish mumkin. Shu jumladan, O'zbekistonda ham Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti (SMTI), Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring o'rganish mustaqil instituti (FJMSHMMI), "Taraqqiyot strategiyasi axborot-tahliliy markazi, Prognozlashtirish va makro iqtisodiy tadqiqotlar instituti (PMTI) kabi "Aqliy markazlar" mavjud. Ular faoliyati davlat siyosatida muhim o'rin tutuvchi deyarli barcha sohalarni qamrab olgan, biroq oliy ta'lim muassasalarining barchasida ham boshqaruv qarorlari samaradorligini baholaydigan alohida institutsional tuzilmalar ("Aqliy markazlar", ekspert guruhlari) mavjud emas. Zero, muammoni markazlashgan Shaklda (rektor, prorektor, dekanlar) emas, balki hududlarning o'zida o'rganish (kadrlar buyurtmachilar), vaziyatga xolis baho berish, birlamchi ma'lumotlarga ega bo'lishga, shuningdek, muammolarni to'g'ri darajalashtirish (joyida, tuman, viloyat, shahar va

⁸Arziyev F.AKSH siyosati va «akliy markazlar»// Tafakkur.-2009 №1.113-b

⁹F.Toltpov. Uzbekistonga taxlilchilar kerakmi?/https..anhor.uz/uz/columnists/10939/02 iyun 2017 yil

respublika miqyosida hal bo'ladigan) imkonini beradigan "Aqliy markazlar" tashkil etish bugungi kunda muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, tadqiqotimizda ushbu tahlil muassasalariga quyidagicha ta'rif berish mumkin: "Aqliy markazlar" — muayan muammo borasida chuqur tadqiqotlar o'tkazishga, fan va ta'limda qo'llanilishi mumkin bo'lgan ob'ektiv bilimlarni o'zlashtirishga, oliy ta'lim muassasalarining samarali faoliyatini ta'minlovchi strategiyasini shakllantirishga, shuningdek, u yoki bu masala yuzasidan qaror qabul qiluvchiga o'z tavsiya va takliflarini ishlab chiqishga qodir mustaqil tahlil markazidir.

Hozirgi vaqtda oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv qarorlari samaradorligiga qator omillar ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni, OTMlarning o'zi mustaqil, akademik, iqtisodiy, ijtimoiy, milliy va boshqa imkoniyatlardan kelib chiqqan holda istiqbolli xapakterga ega boshqaruv qarorlarini qabul qiladi. Odatda, oliy ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligi quyidagi mezonlar bilan aniqlangan:

- 1) abituriyentlar qamrovi dapajasining o'sishi;
- 2) ilmiy salohiatning o'sishi;
- 3) ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaviy muammolaring kamaushi;
- 4) bitiruvchilar bandligining ta'minlanishi;
- 5) xamkorlik faoliyatining yo'lga qo'uinishi;
- 6) OTMlardagi ijtimoiy murojaatlar sonining kamayishi;
- 7) ta'lim sifatining pastligi va hokazo

Izlanishlar natijalari Shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarida asosli qarorlar qabul o'rganish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar ko'rincha mavjud bo'lmaydi. Shu bois kerakli axbopot yig'ilishi, tahlil qilinishi hamda jamoa foydalanishi uchun yaroqli holga keltirilishini ta'minlovchi, chet elda ilg'or deb tan olingan — "Aqliy markazlar", "Loyihaviy boshqaruv", "Assesment markazi", "Baholash va rivojlantirish markazi" va "Kouching" texnologiyalarini oliy ta'lim muassasa faoliyatiga joriy etish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublika Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis palatalari, siyosiu partiyalar hamda O'zbekiston ekologik hapakati vakillari bilan videoselektor yig'ilishidagi ma'puzasida: "O'rganashlar shuni ko'rsatmoqdaki, Oliy Majlis tapkibida muhim bir tuzilma, ya'ni ilmiy-amaliy tadqiqot va axbopot-tahliliy faoliyat olib boradigan, qonun uslubiyotini ishlab chiqadigan markazning yo'qligi bu bopadagi ishlarni yuqori saviuada tashkil etish imkoniyatini bermayapti"¹⁰ degan kontseptual fikrni bildirishi, istiqbolda boshqaruvning barcha bo'g'inarida "Aqliy markazlar"ni tashkil etishni taqozo etadi.

Ilg'or xorijiy tajribalardan kelib chiqqan holda, Oliy Majlis huzurida Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti tashkil etildi. Bu institut parlament a'zolarining buyurtmasiga asosan huquqini ko'llash amaliyoti va xorijiy tajriba bo'yicha tahliliy ma'lumotlar va qonun uslubiyotini tayyoplash kabi vazifalarni amalga oshirmoqda.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib, shuni xulosa aytish mumkinki, oliy ta'lim muassasalari faoliyatida "Aqliy markazlar"ning tashkil etilishi samarali boshqaruv qarorlari qabul qilishni o'rganish imkoniyatini kengaytiradi. Oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv qarorlari samaradorligini baholash mexanizmlarini takomillashtirishda quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

birinchidan, hap bir OTM bo'yicha oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv qarorlari samaradorligini baholash indeksini ishlab chiqish lozim;

ikkinchidan, oliy ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligi va natijadoplugini baholash tizimini ishlab chiqish, talabalar o'rtasida sotsiologik so'rovlar o'tkazish bo'yicha ekspertlar guruhi hamda tahlil markazlarini tashkil etish lozim. Bu ishchi indikatorlar tizimi va sotsiologik so'rovlar orqali mahalliy hokimiyat organlari faoliyati samaradorligi va natijadoplugini baholashni nazarda tutadi. Shuningdek, mavjud muammolarni tizimli o'rganash va joyida hal etish imkonini bepadi;

¹⁰ Mirziyoev SH.M. Parlamentimiz xakikiy demokratiya maktabiga aylanishi, isloxotlaring tashabbuskori va asosiy ijrochisi bulishi kerak./

uchinchidan, sotsiologik so'rovlar orqali oliy ta'lim muassasalarining faoliyati natijalariga, ular tomonidan ko'rsatilayotgan ta'lim xizmatlarining sifatiga baho berish tizimini joriy etish lozim;

to'ptinchidan, tegishli vazirlik va idoralar tomonidan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv qarorlari samaradorligini (barcha yo'nalishlar bo'yicha) baholash to'g'risida Nizom ishlab chiqish maqsadga muvofiq;

beshinchidan, oliy ta'lim muassasalari tuzilmasidagi bo'limlar faoliyatini takomillashtirish orqali OTMLar huzurida "Aqliy markazlar" faoliyatini tashkil etish kerak;

oltinchidan, professional ekspertlardan tapkib topgan, yaqin o'rta va uzoq muddatli strategiyalarni ishlab chiqish uchun tashkil etilgan "Aqliy markazlar"ning amaliyot bilan samarali hamkoplighi, hududlarda mavjud muammolarni ilmiy tadqiq etish, turli soha xodimlarining murojaatlarini o'rganash orqali optimal boshqaruv qarorlari qabul o'rganish imkoniyatini bepadi;

ettinchidan, "Aqliy markazlar" faoliyatining tizimli tashkil qilinishi, oliy ta'lim muassasalari tomonidan samarasiz qarorlar qabul qilinishi, qarorlarning nafaqat iqtisodiy oqibati, balki ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy ta'sirini oldindan baholash, aniq dalillarga asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga sharoit yaratadi;

sakkizinchidan, oliy ta'lim muassasalarining barcha sohada tahlilga asoslangan ma'lumotlar, axbopot almashinuvini tezkor yo'lga qo'yish maqsadida "Aqliy markazlar" huzurida "call-centre"lar tashkil etish;

to'qqizinchidan, oliy ta'lim muassasalari faoliyati haqida xorijiy OAV va internet sahifalarida yoritilayotgan ma'lumotlarni "Aqliy markazlar" tomonidan "kontent tahlil" qilib borish bu boradagi yutuq va kamchiliklar xususida xalqaro hamjamiyat fikrini o'rganash imkonini bepadi;

o'ninchidan, oliy ta'lim muassasalarida "Aqliy markazlar"ning tashkil topishi jamoaning (professor-o'qituvchi, xodim va talabalar) intellektual salohiyati dapajasini oshiradi. Shuningdek, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy muammolarni kompleks

va tizimli hal etishga zamin yaratadi. Bu muayan masala yuzasidan boshqaruv qarorlari qabul qilish jarayonini axbopot bilan ta'minlashni takomillashtirish bilan birga, muammoga berilayotgan bahoning xolisligini oshiradi.

Xulosa qilib autganda, oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv qarorlari samaradorligini baholashda "g'oyalar laboratoriyasi" sifatida "Aqliy markazlar" (Assesment markazi) imkoniyatidan unumli foydalaniyh muayan muammo borasida chuqur tadqiqotlar o'tkazishga, ijtimoiy-siyosiy ta'lim va tarbiyada qo'llanilishi mumkin bo'lgan ob'ektiv bilimlarni o'zlashtirishga, OTMning ichki va tashqi faoliyati strategiyasini shakllantirishga, shuningdek, u yoki bu masala yuzasidan jamoatchilik esituvlari va jamoatchilik muhokamasini samarali tashkil etish imkoniyatini kengaytipadi.